



Kasb-hunar maktabida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib darsda o'zlashtirish darajasini oshirish

Saida Djumaniyazova Saparbayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tuman

2-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu loyihada ta'lim jarayonida o'qituvchining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, interfaol ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari xususidagi ma'lumotlar ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, yuksak talablar, innovatsion loyihalar, samarali dars jarayoni, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar

Ta'lim oluvchilar ta'lim-tarbiyasiga ko'maklashuvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash asosiy pedagogik vazifalardan biridir. Shuning uchun o'qituvchilarning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarni ta'lim standarti talablariga muvofiq o'qitish samaradorligini oshirish, shaxsiy rivojlanish maqsadiga maqbul mos keladigan ta'lim oluvchilar bilan ishlashni tashkil etishning bunday vositalari, usullari va shakllarini tanlashdan iborat. Professional ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim oluvchilarda ta'lim olishga intilish, ta'lim sifatini oshirish, shuningdek ta'limining standartlarini amalga oshirishga qaratilgan. Ta'lim bosqichlariga innovatsion pedagogik texnologiyalarning jadal kirib kelganligi XXI asrning tezkor axborot texnologiyalari barcha jabhalarni qamrab olganligi bilan izohlanadi. Bugungi pedagogdan o'z kasbiy malakasini muttasil takomillashtirib borish bilan birga innovatsion pedagogik



texnologiyalar yaratish, ularni ta'lim jarayonida qo'llashga layoqatli bo'lish talab etilmoqda. Pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi kasbiy malakasining eng muhim ko'rsatkichiga aylandi. Zotan, pedagogning innovatsion faoliyati ijodiy izlanishlari, ta'lim shakli va mazmunini takomillashtirish yo'lidagi ilg'or g'oyalar yaratish, yangiliklar kashf etish salohiyatini namoyon qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchilarda ham yaratuvchilik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash ta'lim maqsadlariga o'z izlanishlari, ongli ijodiy munosabat orqali erishish layoqatini tarkib toptirish ko'zda tutiladi. "Innovatsiya" lotincha so'z bo'lib, yangilanish, "yangilik" ma'nosini ifoda etadi. Innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonining shakli va mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yangi g'oyalar yaratishni ko'zda tutadi. Zamonaviy pedagoglarning ayni jarayonlar ichida faol ish olib borishi qator kasbiy sifatlari qatori innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasini talab etmoqda. Bunday faoliyatga layoqatlilik darajasi ta'lim texnologiyasi loyihasi va uning markazidagi pedagogik g'oyada aniq namoyon bo'ladi.

Texnologiyasining yaratuvchisi – pedagog nazariy bilim, amaliy tajriba, ilg'or ta'lim metodlari va usullarini qo'llash mahoratini egallagan bo'lsa, ta'lim sifati bilan samaradorligi kafolatlanadi.

Har qanday o'qitish texnologiyasi muayyan didaktik maqsadga yo'naltirilar ekan, uning asosida aniq pedagogik g'oya yotadi. Pedagogik texnologiyalar mohiyatini ta'lim oluvchi shaxsini xilma-xil jihatlardan rivojlantirish g'oyasi tashkil etgani uchun xilma-xil mavzular bo'yicha ta'lim texnologiyalari asosida ham ayni shu g'oya harakat qiladi. Biroq bu g'oyani qanday shaklda, qaysi usullar yordamida va qanday qilib amalga oshirish kerak? – degan savolga har safar yangi, original javob topishga harakat qilinadi. Ana shu "javob"dan texnologiyani harakatga keltiruvchi pedagogik g'oya mohiyati tushuniladi. Uzlaksiz ta'lim bosqichlarida ta'lim texnologiyalari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi interfaol usullardan keng foydalanilmoqda.



“6x6x6”, “aqliy hujum”, “pinbord”, “kauching”, “keys-stadi”, “loyihaviy o‘qitish”, kabi o‘nlab usullar nomi barchaga tushunarli va tanish. Ta’lim amaliyotida o‘qituvchi ulardan foydalanishni rejalashtirar ekan didaktik maqsadni asos qilib oladi. Ayni damda bu maqsadni qanday amalga oshirish ustida bosh qotiradi. Muammoni yechish uchun muayyan g‘oya yaratish zarurati kelib chiqadi. Xo‘sh didaktik maqsad aniq, uni amalga oshirish bosqichlari, ta’lim usullari belgilandi, ammo ta’lim texnologiyasi nima asosiga quriladi? “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “G‘oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va odamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr. Unda olamni bilish va o‘zgartirish maqsadlari, ularga erishish yo‘llari va vositalari mujassam bo‘ladi” – deb izohlangan. Ushbu ta’rifni pedagogik texnologiyalarga tadbiq qiladigan bo‘lsak, “ta’lim berish va o‘zlashtirish usullarini yaratish, qo‘llash, ularni yagona tizimga keltirish” ning optimal variantlarini tadqiq etish degan ta’rif kelib chiqadi. Pedagogik texnologiyalarning ta’lim oluvchilar nutqini o‘stirishga yo‘naltirilgan variantlari uni ishlab chiqqan o‘qituvchi pedagoglar yaratuvchilik faoliyati natijasidir. Ayni faoliyat asosida ham muayyan qarash, ta’lim samaradorligini ta’minlash haqidagi g‘oya turadi.

1.2. Texnologik jarayonda pedagogning harakat funksiyalari

Har qanday pedagogik texnologiya yo‘llovchi (yo‘naltiruvchi), bajaruvchi nazorat qiluvchi va tuzatuvchi harakatlarni birlashtiradi.

Innovatsion texnologiya asosida pedagog va talaba munosabatlarining o‘zgarish darajalari:

- pedagog bilimni tashuvchi, yetkazuvchi emas, talabani o‘qish bilim olishda yordamchi, maslahatchi, tashkilotchi rahbarga aylanadi;
- pedagog konstruktorlash, loyihalash, algoritmlash, sharayotida ish yuritishga o‘rganib boradi;



- ikki tomonlama faol, ma'suliyatli, ijodkorlik asosida ish yuritish malakasi shakllanadi;
- ta'lim oluvchi o'zini-o'zi o'qitish, faol ishlashida yakka, juft, kichik guruhlarda mustaqil ishlash muhiti yordam beradi;
- o'quv jarayoni individuallashtiriladi;
- ta'lim natijalari kafolatlanadi.

Pedagogik texnologiya

“Aqliy hujum”, “Muammoli ta'lim”, “6x6x6” kabi metodlar vositasida o'qituvchi ta'lim oluvchining qanday o'quv topshiriqlari ustida ishlashlari yoki qanday muammoni hal qilishlari lozimligini oldindan belgilab, shu masalalar yechimini topishga yo'llovchi savollar, kartochkalar, jadvallar tayyorlaydi. Mashg'ulot texnologiyasini ishlab chiqadi va loyihalaydi. Ta'lim oluvchilar tayyor topshiriqlar asosida izlanishga yo'naltiriladi, topshiriqlar tushunib olingach, faol izlanish, o'ylash, mustaqil faoliyat bosqichiga o'tadilar. O'z qarorlari, hukm xulosalarini tayyorlashga erishadilar. Ta'lim oluvchining aniq, mo'ljalli harakatlari o'zlashtirilgan o'quv materiallari, bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash natijasiga aylanadi. Ayni damda, yangi malakalar ham shakllanib boradi. O'quv harakatlari davomida ta'lim oluvchilar taqdim etilgan topshiriqlarni o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash, bajarish kabi qator faoliyat turlarini amalga oshiradilar. Natija esa bu harakatlar yakunidan yuzaga keladi.

Talaba o'z izlanishlari, o'quv-bilish faoliyati natijasini o'zi baholaydi. O'qituvchi natijalar monitoringini yuritadi, loyihalangan texnologiyaning samaradorlik darajasini nazorat qiladi, uni yanada samaraliroq bo'lish vositalari va imkoniyatlarini belgilaydi, aniqlashtiradi hamda tashxislaydi. Texnologiyaning muayyan qismlarini takomillashtirish bo'yicha ijodiy ish olib boradi.

Interfaol ta'lim texnologiyalar



Faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari. O'qitishning passiv modelida o'qituvchi asosiy aktyor va darsning boshqaruvchi yo'nalishida bo'lib, ta'lim oluvchilar o'qituvchining ko'rsatmalariga bo'ysunadi va passiv tinglovchilar sifatida harakat qilishadi. O'qituvchining darslarda ta'lim oluvchilar bilan aloqasi bir tomonlama bo'lib, so'rovlar, mustaqil, nazorat ishlari, testlar va boshqalar orqali amalga oshiriladi.

Ushbu turdagi darslarning ijobiy jihati o'qituvchi tomonidan mashg'ulotlarga nisbatan oson tayyorgarlik va darsning cheklangan vaqtlarida nisbatan ko'proq o'quv materiallarini taqdim etish qobiliyatidir. Ta'lim oluvchining o'quv materiallarini o'zlashtirishning samaradorligi nuqtai nazaridan esa bu passiv usul hisoblanadi va samarali emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultanov R. O, Yusupov M. R. Ta'limda matematika fanini o'qitishdagi muammolar va ularning yechimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati. O'zMU xabarлари, 2020. №2(1/2/1), 144-147 б.
2. Султанов. Р. О. Idea блокли шифрлаш алгоритмини такомиллаштириш методлари. Academic Research in Educational Sciences, 2020. № 1(3), 397-404 б. 3. Жўраева, Н. В, Султанов, Р. О., Абдуллаева, С. А., Рахимжонова, В. А. Systematization of word combinations in the uzbek language. Наука и Мир, 2020. № 2(6), 65-68 б.
3. Boymurodov. A.X (2020). Integration of general educational schools and higher education institutions in the innovative cluster of pedagogical education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), 1-5.
4. Boymurodov. A.X . (2020). Умумий ўрта таълим тизимида информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишнинг инновацион кластер модели. ЎзМУ хабарлари, 1(2), 42-46.



5. Boymurodov. A.X (2020). Педагогик таълим инновацион кластерида on-line тизимдан фойдаланиш. ЎзМУ хабарлар, 1(2), 72-74.
6. Azimqulov S, Boymurodov. A.(2021). Таълим самарадорлигига эришишда тизимда инновацион усуллар. Academic Research In Educational Sciences, 2(2), 59-67.